

**AUDITORLIK FAOLIYATINING YANGI BOSQICHI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI****Farmonova Rushana Akmalovna**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870011>

Annotatsiya. O'zbekiston iqtisodiy tizimida shaffoflik, moliyaviy mas'uliyat va ishonchlilik tamoyillarini mustahkamlashda auditorlik faoliyati, ayniqsa moliyaviy institutlar va sug'urta kompaniyalari kontekstida, muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda sug'urta bozori hajmi va ishtirokchilari sezilarli darajada kengayib, bu sohaga oid moliyaviy oqimlar va tavakkalchilik darajasining ortib borishi auditorlik xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Ushbu ehtiyoj auditorlik faoliyatining institutsional va normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitish zarurligini yuzaga chiqarmoqda. Mazkur maqolada auditorlik faoliyatining yangi bosqichi – ya'ni xalqaro standartlar, ilg'or texnologiyalar va kasbiy malakaga asoslangan professional yondashuv aynan sug'urta kompaniyalari misolida tahlil qilinadi. Sug'urta tashkilotlari – bu o'z mohiyatiga ko'ra murakkab moliyaviy institutlar bo'lib, ularning faoliyatida auditorlikning dolzarbligi yanada yuqoridir. Audit sifati, kasbiy etikaga rioya etilishi, xalqaro tajribaga moslashuvdagi cheklovlar, shuningdek, raqamlashtirish darajasining sustligi – bular sug'urta sektorida auditorlik nazoratining muammoli jihatlaridir. Maqolada ushbu muammolarni hal qilish uchun xorijiy ilg'or amaliyotlar asosida sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari (data analytics), blokcheyn texnologiyalari kabi vositalarni audit jarayoniga joriy etish orqali sug'urta faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: auditorlik faoliyati, mustaqil audit, xalqaro audit standartlari, moliyaviy hisobot, audit sifati, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, AI-audit, kasbiy etik, blokcheyn, auditorlar malakasi, normativ-huquqiy baza, audit nazorati, auditorlik tashkilotlari, transformatsiya.

Abstract. Auditing, especially in the context of financial institutions and insurance companies, plays an important role in strengthening the principles of transparency, financial responsibility and reliability in the economic system of Uzbekistan. In recent years, the size and number of participants in the insurance market in our country have significantly expanded, and the growth of financial flows and the level of risk in this area has further increased the need for audit services. This need creates the need to improve the institutional and regulatory framework of audit activities, as well as enrich them with modern digital tools. This article analyzes a new stage in audit activities - a professional approach based on international standards, advanced technologies and professional qualifications - using the example of insurance companies. Insurance organizations are complex financial institutions by their nature, and the relevance of auditing in their activities is even higher. Audit quality, compliance with professional ethics, limitations in adapting to international experience, as well as the low level of digitalization - these are problematic aspects of audit control in the insurance sector. The article considers the issues of strengthening control over insurance activities by introducing tools such as artificial intelligence, automated analysis systems (data analytics), and blockchain technologies into the audit process based on foreign best practices to solve these problems.

Keywords: audit activities, independent audit, international audit standards, financial reporting, audit quality, digitization, artificial intelligence, AI-audit, professional ethics, blockchain, auditor qualifications, regulatory and legal framework, audit supervision, audit organizations, transformation.

Kirish: Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda iqtisodiy subyektlar, ayniqsa moliyaviy institutlar va sug'urta kompaniyalari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investitsion muhitga ishonchni oshirishda auditorlik faoliyatining roli tobora ortib bormoqda. Auditorlik faolligi – bu nafaqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi va haqqoniyligini baholash vositasi, balki sug'urta sohasida risklarni boshqarish, zarar qoplash fondlarini to'g'ri shakllantirish va ishonchli iqtisodiy aloqalarni ta'minlashning ham muhim vositasidir. O'zbekiston Respublikasida ayniqsa sug'urta sektori faoliyatini nazorat qilishga oid auditorlik mexanizmlari so'nggi yillarda takomillashib bormoqda. "Audit to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri, auditorlik tashkilotlarining akkreditatsiyasi, auditorlar malakasi bo'yicha qat'iy mezonlar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) moslashuv sug'urta kompaniyalarida audit amaliyotining sifat jihatdan o'zgarishiga zamin yaratmoqda.

Joriy bosqichda auditorlik tizimida, ayniqsa sug'urta kompaniyalarini qamrab oluvchi yo'nalishda, hali ham qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, audit sifati va kasbiy tayyorgarlik darajasi yetarli darajada emas, texnologik yechimlar, raqamli audit platformalari va mustaqillik prinsiplarining amalda qo'llanishi sust darajada. Bu ayniqsa, yirik aktivlar bilan ishlovchi sug'urta tashkilotlarining xavfsizligi va investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dunyo miqyosida raqamli transformatsiya auditorlik faoliyatiga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda – sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (big data) va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan audit vositalari, aynan yuqori xavfli moliyaviy tarmoqlarda, jumladan sug'urta sohasida samarali qo'llanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda auditorlik faoliyatini sug'urta sektori bilan integratsiyalashgan holda yangi bosqichga olib chiqish va uning samaradorligini oshirish uchun strategik va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqolada auditorlik faoliyatining sug'urta kompaniyalari kontekstida zamonaviy bosqichi, uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, xalqaro tajriba va ilg'or texnologiyalarning roli, shuningdek, milliy tizimdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekistonlik olimlar ichida Xusanov B. (2022) va Abdullayeva N. (2024) sug'urta sohasi va auditorlik faoliyatining institutsional asoslarini chuqur tahlil qilgan. Xusanov o'z ishida auditorlik nazoratining sug'urta kompaniyalaridagi tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganib, auditorlik monitoringini tavakkalchiliklar va rezervlar shakllanishi ustidan kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Abdullayeva esa xalqaro audit standartlarini (ISA) sug'urta sektoriga joriy etishdagi muammolarni yoritib, milliy amaliyotni global talablarga moslashtirish bo'yicha metodik yechimlarni taklif etgan. Rossiya olimlari ham sug'urta kompaniyalarida auditorlik faoliyatining texnologik va metodologik rivojlanishini yoritgan. Абрамов А.В. (2020) tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuvlar raqamli audit vositalari va shaffoflikni oshirishga qaratilgan. Орлова Н.Ю. (2023) esa sug'urta rezervlarini baholashda auditor va aktuariy o'rtasidagi metodik muvofiqlik muammosini ko'tarib chiqib, auditda tavakkal baholash aniqligini oshirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, Shushunova M. (2021) Rossiya sug'urta kompaniyalarida IT-audit joriy etilishi bo'yicha amaliy tajribalarni o'rganib, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarining samaradorligini ko'rsatgan.

Yevropa ilmiy maktabi vakili Michael Power (2019) o'zining "Insurance, Risk and Auditing in the Post-Crisis World" nomli tadqiqotida sug'urta kompaniyalaridagi auditni risklarni boshqarish vositasi sifatida talqin qiladi. U auditorlik faoliyatini moliyaviy nazoratdan tashqari, ishonch va tavakkal menejmenti bilan bog'laydi.

Belgiyalik olimi Petra Andries (2023) esa sun'iy intellekt yordamida auditorlarning qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganib, AI-auditda etik mezonlarning ahamiyatini yoritadi. Ayniqsa, sug'urta kabi tartibga solinadigan sohalarda AI-auditning mas'uliyati yuqori ekani ko'rsatiladi.

Osiyolik tadqiqotchilar, xususan Janubiy Koreya olimlari Kim Sang-Wook (2020) va Choi Jong-Hag (2017) sug'urta kompaniyalarida raqamli audit vositalarining amaliyotdagi natijalarini tahlil qilgan. Kim blokcheyn asosidagi audit tizimlarining shaffoflikni oshirishdagi o'rnini ko'rsatgan bo'lsa, Choi katta ma'lumotlar asosida tavakkalchilik baholovchi AI-modellardan auditorlik jarayonlarida foydalanishni taklif etadi. Bu tadqiqotlar Osiyo bozorlarida texnologik innovatsiyalar auditorlik faoliyatining ajralmas qismiga aylanganini ko'rsatadi.

Anglosakson ilmiy maktabining yetakchi vakillari – David Hay (2021) va Francis J.R. (2018) o'z izlanishlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va likvidligi ustidan auditorlik nazoratining asosiy mexanizmlarini tahlil qilgan. Hay qayta sug'urtalash shartnomalari, zahiralari va aktivlari sifati ustidan nazoratni muhim deb biladi. Francis esa auditorlik sifati va sug'urta bozorlarining makroiqtisodiy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik dalillar asosida asoslab bergan. Deloitte Insights (2023) tomonidan tayyorlangan "AI and the Future of Audit: Focus on Insurance" nomli hisobotda sun'iy intellekt yordamida sug'urta kompaniyalarida auditorlik sifatini qanday oshirish mumkinligi bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Unda AI-audit vositalarining real vaqtli tahlil, tavakkal identifikatsiyasi va operatsion monitoringga qo'shgan hisssasi chuqur yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda auditorlik faoliyatining zamonaviy bosqichini o'rganishda ilmiy-tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Avvalo, auditorlik tizimining institutsional asoslari, xalqaro tajribalar, milliy normativ-huquqiy baza va mavjud holatning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun sistemali tahlil va komparativ (taqqoslov) tahlil usuli qo'llanildi. Bu orqali O'zbekiston auditorlik tizimi Rossiya, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan qiyoslanib, rivojlanishdagi umumiy va farqli jihatlar aniqlab berildi.

Tadqiqotda empirik usullar, xususan, so'ngi yillar davomida e'lon qilingan xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar, audit hisobotlari, davlat organlarining rasmiy nashrlari tahlil qilindi.

Shuningdek, auditorlik tashkilotlarining faoliyat samaradorligi, audit sifati, malaka mezonlari va texnologik innovatsiyalarni joriy etish darajasi bo'yicha kontent-analiz usuli orqali mavjud holat baholandi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlar va ilmiy maqolalardagi yondashuvlar asosida transformatsiya tendensiyalari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, mavzuga oid ilmiy qarashlar, nazariy yondashuvlar va ekspert mulohazalari asosida deduktiv-induktiv tahlil usuli qo'llanildi. Deduktiv yondashuv yordamida auditorlik faoliyatining nazariy asoslari aniqlanib, ularning amaliyotga ta'siri baholandi. Induktiv yondashuv orqali esa O'zbekiston tajribasi asosida xulosa va takliflar shakllantirildi.

Metodologik yondashuvlarning barchasi tadqiqotning ob'yektivligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Bozor iqtisodiyotining murakkablashuvi, moliyaviy oqimlarning ko'payishi va xatarlar xilma-xilligining ortib borishi auditorlik faoliyatining yangi bosqichga o'tishini taqozo etmoqda. Xususan, sug'urta kompaniyalari misolida olib borilgan tahlillar, bugungi kunda auditorlik tizimi oldida qanday muammolar mavjudligi va ularni hal etish uchun qanday zamonaviy yondashuvlar zarurligini ochib bermoqda. Quyida 2023–2024-yillardagi real statistik ma'lumotlar asosida ushbu jarayonlar yoritiladi.

Sug'urta tashkilotlari sonining 38 tadan 33 taga qisqarishi (–13,2%) va hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar sonining 28,6% ga kamayishi ushbu sohada moliyaviy

barqarorlik va audit orqali aniqlanishi zarur bo'lgan operatsion xatarlarning mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ustav kapitalining 28,9% ga oshganini inobatga olsak, sug'urta sektori moliyaviy jihatdan yiriklashmoqda. Bu esa auditorlar oldiga kapital tarkibini chuqur tahlil qilish, likvidlik va solishtirma tahlillarni zamonaviy metodlar bilan olib borish vazifasini qo'yadi.

1-jadval

Sug'urta bozori tuzilmasi – auditorlik muvozanat nuqtalari

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (%)	Audit nuqtai nazaridan izoh
Sug'urta tashkilotlari soni	38	33	-13,2%	Bozor qisqarishi — audit doirasi toraymoqda
Hayot sug'urtasi kompaniyalari soni	7	5	-28,6%	Uzoq muddatli majburiyatlar auditi talabchanroq
Umumiy ustav kapitali (mlrd so'm)	2 299	2 964	+28,9%	Moliyaviy barqarorlik oshdi – kapital monitoring muhim
Sug'urta brokerlari soni	8	11	+37,5%	Oraliq vositachilar ko'paymoqda – audit zanjiri murakkab
Aktuariylar soni	5	5	0%	Tavakkal tahlilida o'zgarish yo'q – auditga cheklov
Sug'urta agentlari soni (shu jumladan yuridik shaxslar)	4 736 (1 711)	4 804 (1 704)	+1,4% (-0,4%)	Agentlik tarmog'i keng – ichki audit tizimi zarur
Kafolat jamg'armasiga a'zo kompaniyalar soni	26	25	-3,8%	Kafolat darajasi pasaydi – tavakkalchilik oshishi mumkin

Manba: <https://insurance.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Audit nuqtayi nazaridan bunday o'zgarishlar auditorlarning resurslarga bo'lgan yondashuvini yangilashni talab etadi. Jumladan, audit jarayonlarida riskga asoslangan audit (risk-based audit) yondashuvi va raqamlashtirilgan monitoring tizimlari joriy qilinishi zarur.

Sug'urta kompaniyalarining jami investitsiyalari 6,4% ga oshib, 6,5 trln so'mga yetdi.

Bunda asosiy o'sish depozitlar (13,5%) va zaymlar (103,6%) bo'yicha kuzatildi. Ayni paytda qimmatli qog'ozlar (-4%), ko'chmas mulk (-16,1%) va ustav fondidagi ishtirok (-26,9%) qisqardi. Bu investitsiya portfelining tarkibiy o'zgarishlarini auditorlar tomonidan chuqur tahlil qilish zaruriyatini bildiradi.

2-jadval

Sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati – audit tahlil sohalari

Investitsiya turi	2023-yil (mln so'm)	2023-yil ulushi (%)	2024-yil (mln so'm)	2024-yil ulushi (%)	Audit nuqtai nazaridan izoh
Jami investitsiyalar	6 149 938	100%	6 542 569	100%	Aktiv portfel hajmi kengaymoqda – audit ko'lami oshdi
Depozitlar (omonatlar)	4 037 369	65,6%	4 583 762	70,1%	Yuqori likvidlik – auditda solishtirma tahlil zarur

Qimmatli qog'ozlar	1 357 492	22,1%	1 303 756	19,9%	Bozor risklari ortmoqda – markazlashgan monitoring kerak
Zaymlar	46 864	0,8%	95 400	1,5%	Tavakkal darajasi yuqori – qarz auditida AI-analitika lozim
Ko'chmas mulk	539 498	8,8%	452 745	6,9%	Aktiv qiymati pasaymoqda – aktiv amortizatsiyasini tekshirish zarur
Ustav fondidagi ishtirok	134 728	2,2%	98 480	1,5%	Kapital auditi – ulush ta'sirini baholash kerak
Boshqa investitsiyalar	33 988	0,6%	8 425	0,1%	Noaniq investitsiyalar – shaffoflikni oshirish kerak

Manba: <https://insurance.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ushbu ko'rsatkichlar auditorlikning yangi bosqichi – aktivlar monitoringini avtomatlashtirish, AI-audit texnologiyalari yordamida portfel baholash va blokcheyn asosidagi investitsiya kuzatuvi zarurligini taqozo etadi. Investitsiyalarning yo'nalishi moliyaviy barqarorlik va soliq bazasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2023–2024-yillarda sug'urta kompaniyalarining mukofotlari tahlili ularning moliyaviy barqarorlik darajasi va strategik boshqaruv samaradorligi haqida to'liq tasavvur beradi. Misol uchun, GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI AJ mukofotlari 69,7% ga oshgan bo'lsa, APEX INSURANCE AJda bu ko'rsatkich –33,7% ga kamaygan. Bu holatlar kompaniya ichki auditi, boshqaruv yondashuvi va strategik moliyaviy nazorat sifatiga bog'liqdir.

Jadval 3. Kompaniyalar kesimida sof mukofotlar o'zgarishi (mln so'm)

Kompaniya nomi	2023-yil (mln so'm)	2024-yil (mln so'm)	Mukofotlar ulushi (%)	Audit nuqtai nazaridan izoh
GROSS SUG'URTA AJ	232 391	395 499	6,0% → 10,0%	Faol kengayish – moliyaviy monitoringni kuchaytirish zarur
KAFOLAT SUG'URTA AJ	492 729	622 983	8,5% → 11,0%	Barqaror o'sish – ichki audit tizimi mustahkamlanmoqda
APEX INSURANCE AJ	1 320 266	874 173	22,8% → 15,3%	Keskin pasayish – moliyaviy xavflar va siyosiy o'zgarishlar ta'siri
ALFA INVEST SUG'URTA AJ	118 873	193 787	2,0% → 3,4%	O'sish sur'ati yuqori – kapital rentabelligi tahlili zarur
ASIA INSURANCE SUG'URTA AJ	62 530	56 139	1,1% → 1,0%	Barqarorlikda pasayish – operatsion tavakkalchilikni aniqlash zarur

MY-INSURANCE AJ	336 149	429 693	5,8% → 7,6%	O'sishda – faoliyat daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarur
TRUST- INSURANCE AJ	127 866	119 991	2,2% → 2,1%	Yengil pasayish – mijozlar segmentatsiyasi bo'yicha audit zarur
ALISKOM AJ	145 757	199 345	2,5% → 3,5%	Barqaror o'sish – marketing samaradorligi va auditi lozim

Manba: <https://insurance.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida auditorlar kompaniya bo'yicha segmentlangan audit strategiyasi tuzishi, moliyaviy oqimlar, tavakkalchilik va investitsiya siyosatini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishi kerak. Ayniqsa, AI-yordamida auditorlik qarorlarini qabul qilish (AI-assisted judgment) istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sug'urta sektoridagi o'zgarishlar auditorlik faoliyati uchun yangi vazifalarni belgilab bermoqda. Auditorlik faoliyatining yangi bosqichi — bu shunchaki tekshirish emas, balki raqamlashtirilgan tahlil, texnologik yondashuv, AI vositalari, va xalqaro standartlarga moslashgan moliyaviy monitoring tizimidir. Aynan sug'urta kompaniyalari kabi murakkab moliyaviy tuzilmalar misolida bu bosqichning qanday amalga oshirilishi va takomillashtirilishi amalda ko'rsatib beriladi.

Muhokama: O'zbekiston sug'urta bozori misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning ustav kapitali va investitsiyaviy faolligi ortib bormoqda. Bu holat nafaqat iqtisodiy o'sishning belgisi, balki auditorlik faoliyatining yangi bosqichga o'tish zarurligini ham ko'rsatadi. Auditorlar endilikda nafaqat moliyaviy hisobotlarning aniqligini tekshirish, balki kompaniyaning umumiy moliyaviy salohiyati, risk profili va investitsion strategiyasini ham chuqur tahlil qilishga majbur bo'lmoqda.

Ayniqsa, ustav kapitali 28,9% ga o'sgani, investitsiyalar hajmining 6,4% ortgani auditorlik nazoratini kengaytirishni taqozo etadi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida kuzatilgan o'zgarishlar — xususan, sof mukofotlar hajmidagi sezilarli tafovutlar — auditorlar uchun real vaqtda kuzatuv mexanizmlarini joriy qilish zarurligini ko'rsatadi. Misol uchun, GROSS SUG'URTA AJ mukofotlarining 69,7% ga oshgani bilan birga, APEX INSURANCE AJ kabi kompaniyalarda –33,7% ga pasayish kuzatilgan.

Bunday tafovutlar oddiy moliyaviy auditdan ko'ra, kompleks yondashuv – ya'ni operatsion audit, risk auditi va AI-yordamida analitik tahlil olib borishni talab etadi. Bu esa auditorlik faoliyatining yangi bosqichda yanada murakkablashib borayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, investitsion portfel tarkibida ko'zga tashlanadigan o'zgarishlar, ayniqsa, ko'chmas mulkka investitsiyaning kamayishi (–16,1%), zaymlarning ortishi (+103,6%) va ustav fondidagi ishtirokning qisqarishi (–26,9%) auditorlar e'tiborini aktivlar sifati va likvidligiga qaratishi zarurligini ko'rsatadi. Bunday holatlarda raqamli tahlil platformalarini joriy etish, shuningdek, blokcheyn texnologiyasi asosidagi investitsiya izchil kuzatuv auditorlik sifatini yangi darajaga olib chiqadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori tavakkal darajasi mavjud tarmoqlarda auditchilarning texnologik savodxonligi audit natijalarining ishonchligini belgilaydi.

Umuman olganda, auditorlik faoliyatining yangi bosqichi — bu raqamlashtirilgan, integratsiyalashgan va ilgʻor texnologiyalar bilan jihozlangan holatda olib boriladigan nazorat va tahlil tizimidir. Sugʻurta bozori misolida buni yaqqol koʻrish mumkin: bu sohada moliyaviy oqimlar katta, tavakkalchilik yuqori va investitsion faoliyat murakkabdir. Shunday sharoitda auditorlar nafaqat anʼanaviy audit metodlariga, balki sunʼiy intellekt, data analytics va xalqaro audit standartlariga asoslangan yondashuvlarga tayangan holda ishlashlari lozim. Aks holda, audit oʻzining ishonchli va mustaqil baholovchi rolini yoʻqotishi mumkin.

Xulosa. Oʻzbekistonda auditorlik faoliyati zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda yangi bosqichga oʻtmoqda. Sugʻurta bozori misolida olib borilgan tahlillar sohadagi muhim oʻzgarishlarni ochib berdi: ustav kapitalining oʻsishi, investitsiya yoʻnalishlarining qayta tuzilishi, ayrim kompaniyalardagi mukofotlar hajmining keskin oʻzgarishi auditorlik jarayonlariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, yuqori riskli aktivlar, tavakkalchilik darajasining oshishi, va moliyaviy oqimlarning koʻpayishi sharoitida audit faqat hisobotlar bilan cheklanmasligi, balki strategik qarorlarni baholash vositasiga aylanishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, auditorlik faoliyatini takomillashtirish uchun birinchi navbatda texnologik innovatsiyalar — sunʼiy intellekt, data analytics va blokcheyn texnologiyalarini audit jarayonlariga joriy etish muhimdir. Ikkinchidan, auditorlarning malakasini xalqaro standartlar asosida oshirish, shuningdek ichki audit tizimlarini mustahkamlash orqali audit sifati va mustaqilligini taʼminlash mumkin. Bu esa nafaqat sugʻurta sektori, balki butun moliyaviy tizimda shaffoflik, ishonch va barqarorlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Xusanov B. Auditorlik faoliyatining institutsional asoslari va ularni takomillashtirish yoʻnalishlari // Iqtisodiyot va taʼlim. – 2022. – №1. – B. 44–52.
2. Mamatqulov I. Audit xizmatlari bozorini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari // Moliyaviy tahlil. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 60–66.
3. Абрамов А.В. Аудиторская деятельность в условиях цифровизации экономики // Аудит и финансовый анализ. – Москва: Финансы и кредит, 2020. – №6. – С. 12–18.
4. Орлова Н.Ю. Этика и независимость аудитора в новых реалиях // Международный бухгалтерский учет. – 2023. – №4. – С. 22–29.
5. Power M. The Audit Society Revisited: Risk, Control, and Transparency // Accounting, Organizations and Society. – 2019. – Vol. 74. – P. 101–114.
6. Hay D. The Future of Audit: Technology, Assurance, and Trust. – London: Routledge, 2021. – 248 p.
7. Francis J.R. Audit Quality and Audit Outcomes: A Review of Empirical Evidence // Journal of Accounting Literature. – 2018. – Vol. 40. – P. 45–71.
8. Kim S.-W. Digital Audit and Blockchain: New Paradigms in Korean Corporate Governance // Asian Journal of Accounting Research. – 2020. – Vol. 5, No. 2. – P. 123–137.
9. Choi J.-H. Audit Analytics and Financial Reporting Quality // Korean Accounting Review. – 2017. – Vol. 42, No. 3. – P. 55–74.
10. Andries P. AI and Auditor Judgment: Opportunities and Ethical Challenges // European Accounting Review. – 2023. – Vol. 32, No. 1. – P. 33–50.
11. Shushunova M. Kompleksnaya avtomatizatsiya audita na baze IT-resheniy // Rossiyskiy audit. – 2021. – №9. – S. 48–56.

12. Abdullayeva N. O'zbekiston auditorlik tizimini xalqaro standartlarga integratsiyalash jarayonlari // Ilmiy-amaliy moliya jurnali. – 2024. – №2. – B. 30–38.
13. Deloitte Insights. AI and the Future of Audit: Insights for Transformative Change. – New York: Deloitte Center for Controllershship, 2023. – 36 p.
14. <https://insurance.uz>